

Date: 1<sup>st</sup> November-2025

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING PEDAGOK KADRLAR  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI O'RNI**

**Rahmonov Farruh Hofiz o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish  
metodikasi ( tarix)mutaxassisligi II bosqich magistranti

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada Jizzax Davlat pedagogika institutining tashkil topishi va Jizzax viloyati umumta'lim maktablarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash to'g'risida fikrlar keltirilgan.

**Annotation:** This article contains opinions on the establishment of the Jizzakh State Pedagogical Institute and the provision of pedagogical staff to general education schools of the Jizzakh region.

**Аннотация:** В данной статье содержатся мысли о создании Джизакского государственного педагогического института и обеспечении педагогическими кадрами общеобразовательных школ Джизакской области.

**Kalit so'zlar:** Institut, oliygo'h, ta'lim tog'risidagi qonun, kadrlar, pedagog, kafedra, dotsent, professor, tashkil etilish.

**Key words:** Institute, university, law on education, personnel, pedagogue, department, associate professor, professor, organization.

**Ключевые слова:** институт, вуз, закон об образовании, кадры, педагог, кафедра, доцент, профессор, организация.

Jizzax Davlat pedagogika instituti sobiq SSSR Ministrlar Kengashining 1974-yil 28iyuldagi, o'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va Ministrlar Kengashining 1974-yil 4-avgustdagi, o'zbekiston Maorif Ministrligining 1974-yil 8avgustdagi qarori asosida tashkil etildi.<sup>11</sup>1989-yil 21-dekabrda atoqli yozuvchi abdulla Qodiriy nomi Jizzax Davlat pedagogika institutiga berildi. Mazkur oligoh Jizzax shahrida tashkil etilgani tarixiy voqea bo'ldi va Jizzax xalqi tomonidan iliq kutib olindi.

Mustaqillikka erishganimizda so'ng dastlabki e'tibor ta'limga berilganligining isboti 1992-yil iyulda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" ning qabul qilishidir. Mazkur qonun umumiy ta'lim maktablari qatori oliy o'quv yurtlariga ham ulkan vositalarni qo'ydi. Bu qonun ijrosini ta'minlash uchun institutda bir qancha ishlarda yuqori natijalarga erishish uchun harakatlar belgilangan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Jizzax Davlat pedagogika institutida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi.

1992-1993-yillardan boshlab oligohda hamma yo'nalishlarda yangi o'quv rejasiga o'tish jarayoni boshlandi. Yangi o'quv rejaga muvofiq mutaxassislik fanlar o'quv rejasining 65-70 foizini tashkil qilgan bo'lsa, ijtimoiy fanlar va pedagogika – psixologiya

<sup>11</sup> S.a.Nishonov, X.X.Haydarov. —Jizzaxning to'ng'ich o'quv yurti Jizzax. 1994 – yil.



Date: 1<sup>st</sup> November-2025

soatlari esa 25-30 foizini tashkil qiladi. Bu jarayon talabalarga kreativ fikrlashni o'rgatadi. Ya'ni o'zlarining mutaxassislik fanlarini to'liq egallab unga pedagogik va psixologik jihatdan sayqal berilsa uni tushinish va kelajakda o'quvchi yoshlarga yetkazib berishda yuksak muvaffaqiyatlarga erishadi.

Jizzax cho'lini o'zlashtirilishi, sanoat korxonalarining ko'plab bunyod etilishi, yangi xo'jaliklarni tashkil etilishi, o'z navbatida aholi sonini oshishiga olib keldi. Bu hududlarda yashayotgan aholi sonining o'sishi esa o'z navbatida yangi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'payishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida malakali maktab o'qituvchilari va malakali maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlariga bo'lgan talabni oshirib yubordi.

Mana shunday malakali pedagog kadrlarni tayyorlash esa Jizzax Davlat pedagogika instituti zimmasiga yuklatildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu vazifa ikki hissa oshganligi hammaga ma'lum, chunki mustaqil o'zbekistonni rivojlantirish, mustaqillikni saqlab qolish, avvalo malakali kadrlarni tayyorlashdan boshlanadi. o'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng institutimizda o'quv tarbiyaviy ishlar qaytadan ko'rib chiqilib, bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. o'zbekiston tarixi kafedrasini tashkil qilindi. Kafedrada tarix fanlar nomzodi, dotsentlar R.Norqulova, R.Xolmurodov, B.Mirkomilov, a.Boltayev singari tajribali o'qituvchilar faoliyat ko'rsata boshlagan.<sup>12</sup>

Xalqimiz qadimdan o'ta boy madaniyat va tarixga ega bo'lganligini talabalarga tushintirish va ularning ongiga, qalbiga singdirish har bir institut pedagog xodimining asosiy vazifasi bo'lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Jizzax Davlat pedagogika institutida boshlang'ich ta'lim, jismoniy tarbiya, rus tili va adabiyoti, mehnat ta'limi, o'zbek tili va adabiyoti, riyoziyot fakultetlari viloyatimiz maktablariga malakali kadrlar tayyorlab bergan. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu fakultetlarda 3 mingdan ziyod talabalar tahsil olgan. 14 ta millat vakillari tahsil olganligi o'zbekiston bag'rikeng diyor ekanligidan dalolat beradi. O'quv yili jarayonida ham biz talabaning o'z ustida ishlashi, bilimni yuksaltirishi uchun alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Masalan har bitta kofedra qoshida tashkil etilgan biz o'quv xonalarida mutaxassislik bo'yicha kitoblar va qo'shimcha adabiyotlar bilan boyitib borilmoqda. Mustaqillik yillarida Professor-o'qituvchilarning gazeta - jurnallarda chop etgan maqolalari va o'quv qo'llanmasi talabalarga qo'shimcha adabiyot sifatida xizmat qilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida "xalq – ta'limi" va "Ma'rifat" kabi gazeta jurnallar chop etilgan. Bu bazada asosan professor S.a.Nishonov va professor B.o'rinboyevning va boshqa professor o'qituvchilarning xizmatlari beqiyos.

Jizzax davlat pedagogika institutida 1992-1995-yillar mobaynida geografiya fanlari doktori, professor S.Nishonov rektorlik faoliyatini olib bordi. Shu vazifani 1995-1997-yillarda esa oliygohning o'quv ishlari bo'yicha prorektor fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent B.Mamajonov vaqtinchalik bajarib turdi. 1997 -2005-yillarda kimyo

<sup>12</sup> S.a.Nishonov, X.X.Haydarov. —Jizzaxning to'ng'ich o'quv yurti Jizzax. 1994 – yil.



Date: 1<sup>st</sup> November-2025

fanlari doktori professor G'.Muhammedov rektorlik vazifasini bajardi. Jizzax davlat pedagogika institutiga 2005-yil mart oyidan Samarqand Davlat universitetida mexanika-matematika fakulteti dekani lavozimida faoliyat olib borayotgan fizikamatematika fanlari doktori, professor o.Do'stmatov rektor etib tayinlandi. o.Do'stmatov mana shu lavozimida 2014-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

2015-yildan satsiologiya fanlari doktori, professor a.Xolbekov rektor lavozimida 2020yilgacha samarali mehnat olib bordi.<sup>13</sup> 1997-yilda rektorlikka tayyorlangan.

G'.Muhammedov oliygohni rivojlantirishga, o'zbekiston Respublikasida samarali o'quv maskaniga aylantirishga tinmay mehnat qilgan.1992-yilda professor unvonini olgan G'.Muhammedov juda ko'p xalqaro anjuman konfrensiyalarda ishtirok etdi va Jahon olimlari e'tiborini tortganligi sababli 1995-yilda Nyu-York Fanlar akademiyasi a'zosi bo'ldi. G'.Muhammedov tashabbuskor har narsaga ijodiy jihatdan yondoshganligi uchun qisqa muddatda oliygohda sog'lom muhit yaratdi.

Sog'lom muhit hukmronlik qilgan joyda ish ham, ta'lim ham samarali faoliyat yuritadi.Rektor faoliyati davomida oliygoh qoshida yordamchi xo'jaliklar tashkil qilindi. Bu xo'jaliklardan olingan daromad institut professor o'qituvchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llabquvvatlashga sarflandi. G'.Muhammedovning mehnatkashligi institut jamoasining birdamligi tufayli bir necha million so'm daromad qilindi. Bu daromadlar asosan institutning oddiy texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirildi.

Bugungi kunda Jizzax Davlat pedagogika instituti o'z faoliyati davomida viloyatimiz, respublikamiz ta'lim tizimiga malakali pedagoglar va ilmiy xodimlar tayyorlab berish kabi ezgu niyatni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Mana shunday ezgu maqsadni amalga oshirish uchun maktablarda o'quvchilarga o'tiladigan har bir fan bo'yicha malakali mutaxassis tayyorlab berish qizg'in davom etmoqda. Talabalar tahsil olish jarayonida mutaxassislik fanlarini chuqur egallab, axborot texnologiyalardan ham topib, biron-bir xorijiy tilni ham o'rganishga sharoitlar yetarli. Mustaqillik yillarida yaxshi o'qiydigan har tomonlama iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqildi. Iqtidorli talabalarning "Istedod" xayriya jamg'armasi, "Madaniyat" jamg'armasi va ko'plab tashkilotlar tashkil etildi.

Bu tashkilotlar yoshlarni har tomonlama intellektual salohiyatini oshirish, va ularni rag'batlantirish ijtimoiy jihatdan himoya qilish va ma'naviy jihatdan yuksaltirish kabi bir qancha tadbirlarni amalga oshiradi. Birinchi Prezidentimiz I.a.Karimovning qarorlari bilan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, rag'batlantirish maqsadida 1993-yilda "Ulug'bek" nomidagi o'zbekiston yoshlar jamg'armasi tashkil etildi. oliygohda talabalar faqatgina ta'lim olish bilan cheklanmasdan turli xil sport turlari, ma'naviy-ma'rifiy kechalar, bilimni charxlaydigan turli xil zakovatlarida ham ishtirok etib kelmoqdalar. oliygoh va tuman shahar maktablari o'rtasida bir qancha aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Institut rektorining Jizzax davlat pedagogika institut sayiljoy akademik litseyi o'quvchi yoshlari bilan uchrashuvi o'tkazildi. Tadbirda institut va litsey aloqalarini yanada

<sup>13</sup> H.Haydarov, Q.Usmonov. Jizzax tarixi(Jizzax tarixi haqida xotira va lavhalar) Toshkentlo'qituvchil.



Date: 1<sup>st</sup> November-2025

mustahkamlash masalalari belgilab olindi. Institut professor-o'qituvchilari Zomin tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 26-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan dars mashg'ulotlari o'tkazildi. Mazkur tadbirida "Yangi o'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" shiori ostida tashkil etildi.<sup>14</sup>

Jizzax davlat pedagogika institutida faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilar orasida Xalqaro Ahmad Yassaviy Mukofoti va Mashrab nomli mukofot sovrindorlari, xalqaro pedagogika akademiyasi va "antik dunyo" xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi va muhbir a'zolari, "Istedod" ("Umid") jamg'armasi granti sovrindorlari va respublika tanlovi g'oliblari hamda "o'zbekiston Respublikasida Xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" kabi yuksak unvon sohiblari bor.<sup>1516</sup>

Jizzax davlat pedagogika instituti o'z faoliyati davomida viloyatimiz va respublikamiz ta'lim tizimiga malakali pedagoglar va ilmiy xodimlar tayyorlab bermoqda. oliygo'hnini a'lo baholar bilan muvaffaqiyatli bitirgan sobiq talabalar orasidan ko'plab olimlar, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, pedagoglar viloyat, tuman ta'lim tizimining rahbarlari yetishib chiqdi. Institut jamiyatning turli sohalariga kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, davlat boshqaruv organlari, maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalariga ko'plab yetuk mutaxassislar yetkazib berilmoqda.

Jizzax davlat pedagogika institutida tashkil etilayotgan talabalarga yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilgan. Chunki 2003-yil institutning "Kimyo-ekologiya" yo'nalishi bo'yicha Ahmedjonova Yorqinoy testga kirgan va 109.1 ball to'plab shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan. Ahmedjonova.Y Jizzax tumani a.Navoiy jamoa xo'jaligida istiqomat qilgan, mazkur hududdagi 16-maktabda oliy ma'lumotli kimyo o'qituvchisi yo'q bo'lganligi sababli talabaning o'qishi uchun homiy topishga amaliyot yordam so'rab Jizzax tumani xokimi Q.Z.Qobilovga murojat qilgan. Chunki maktablarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash mahalliy davlat hokimiyati organlari va oliygo'hnini asosiy vazifasi hisoblanadi.<sup>175</sup>

Bundan tashqari oliygo'hrabariyati Ahmedov To'ychiga "amir Temur davlat boshqaruvining Abdullaxon davridagi ko'rinishi"<sup>2</sup> mavzusida ilmiy izlanish olib borayotganligi tufayli Alisher Navoiy nomli Davlat kutubxonasidan foydalanishida amaliy yordam so'rab Alisher Navoiy nomli Davlat kutubxonasi direktoriga murojat qilgan.<sup>6</sup> Institutning yana bir xayrli ishi : o'zbeknavo estrada birlashmasi bosh direktori B.abduraximovga shu mazmundagi xat bilan murojat qilgan.

A.Qodirov nomli Jizzax davlat pedagogika instituti rektori sizdan institut talabasi akmal Isroilovga imtiyozli (bepul) ruxsatnoma olishiga amaliy yordam berishingizni so'raydi, chunki talabamiz a.Isroilov nafaqat institutning jamoat ishlari va tadbirlarida balki viloyatimiz miqyosida o'tkaziladigan barcha tadbir va jamoat ishlarida o'zining san'atini namoyon qilgan holda, viloyatimiz ahliga sidqidildan xizmat qilib kelmoqda.

<sup>14</sup> —Ziyo chashmasil 01.01.2021-yil 286-son.

<sup>15</sup> —Jizzax tarixil X.Xaydarov, G.Usmonov. Toshkent 2009-y <sup>65</sup>arxiv hujjatlari.

<sup>16</sup> .09.2003-y. Sanadagi xat.

<sup>17</sup> arxiv hujjatlari. 20.12.2003-y. Sanadagi xat.





Date: 1<sup>st</sup> November-2025

A. Isroilovga bizning talabamiz sifatida kelgusida o'zining san'atini Respublikamiz ahliga ham taqdim etishiga ishonchimiz komil.<sup>18</sup> oliygohni amalga oshirgan bu ishlari talabalar kelajakda o'zlari istagan yutuqlarga erishishida, o'zbekistonga xizmat qiladigan malakali kadrlar bo'lib yetishishida imkoniyatlar uyi vazifasini bajarib kelmoqda.

Jizzax davlat pedagogika institutining professor-o'qituvchilar jamoasi talabalar orasida olib borayotgan ma'ruzalarida, amaliy mashg'ulotlarida va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida asosiy e'tibor o'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashdek oliy maqsadga qaratilgan. ana shu maqsadlarni amalga oshirishda oliygohning professor o'qituvchilari jamoasi o'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti bilan bo'lib o'tgan suhbatda: "o'zbekistonning bugun faqat bitta yo'li bor, u ham bo'lsa o'zining mustaqilligini mustahkamlab, faqat olg'a yurishdir. Boshqa yo'li yo'q."<sup>19</sup> deb aytib o'tgan so'zlarini talabalar o'rtasida keng targ'ib qilish va professor o'qituvchilar o'zlari uchun ham asosiy dasturamal deb bilishi va dars jarayonlarida, darsdan boshqa paytlarda ham o'quv-tarbiyaviy ishlar olib borishi kerak va zarurdir.

Birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek istiqloq mafkurasining bosh go'yasi jamiyatning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga qaratilmog'i kerak.

"Ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot bo'lmaydi". Mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikamizning har bir a'zosini qorin tashvishi emas, qadr qayg'usi tashvishga solgandagina muqaddas mustaqilligimizning ustuvorligi ta'min etiladi. Mana shunday ko'rsatmalarga amal qilib kelayotgan institut jamoasi o'quv-tarbiyaviy ishlarining asosiy yo'nalishlari birinchi prezidentimiz I.a.Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan o'tish davrining besh tamoyilini talabalar ongi va shuriga yetkazishga qaratilmoqda. Shu munosabat bilan oliygohda talabalarning nazariy darslarini kamaytirish, ularni o'zlari mustaqil faoliyat olib borish uchun tizimli ishlar amalga oshirilgan. Bunda asosan ta'lim jarayoni ishlab chiqarish bilan bog'langan. Bozor iqtisodiyoti jarayoni bilan ta'limni bog'lash, har tamonlama yuqori saviyali kadrlar tayyorlashga yordam beradi. Bilimli va o'quv dasturini yaxshi o'zlashtirgan ayrim talabalar uchun o'quv dasturidan chiqmagan holda o'qish va ta'lim jarayonining ba'zi vazifalarini mustaqil bajarishi uchun imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berishga alohida e'tibor berib kelinayotganligi taqsiq loyiq. oliygoh talabalari o'quv pedagog, ishlab chiqarish, bitiruv ishi oldi amaliyotlari asosan anditoriyalarda olgan bilimlarini amalda sinab ko'radilar, mustaqil hayot bilan mustahkam aloqa bog'lamoqdalarva undan qanday yashash yo'llarini o'rganmoqdalar.

Talabalar oliygohda olgan mazariy-bilimlarini ilmiy tadqiqot institutlari, korxonalar, laboratoriyalar, muassasalarda, maktablarda, maktabgacha ta'lim muassasalarida amalda qo'llab ko'rmoqdalar. Talabalar ilmiy-amaliy ishlarini bajarishga muvofiq bo'lmoqdalar. Talabalar o'zlarining nazariy bilimlarini amalda qo'llashda kutubxonadagi o'qigan adabiyotlardan, texnik vositalardan, ko'rgazmali qurollardan va metodikadan foydalanish yo'llarini puxta bilishlari muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

<sup>18</sup> arxiv hujjatlari. 19.12.2003-y. Sanadagi xat.

<sup>19</sup> I.a.Karimov — Tarixiy xotirasiz kelajak yo'ql 1998-y. 29-bet.



Date: 1<sup>st</sup> November-2025

Bu esa o'z navbatida bo'lajak pedagoglarni kompyuterlardan mustaqil foydalanish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, ko'rgazmali qurollardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganish imkonini bermoqda. Talabalar olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llab maktablarda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib ularni barkamol, vatanga xizmat qiladigan, yetuk tarbiyali shaxs qilib tarbiyalashda Jizzax davlat pedagogika institutining o'zni muhim ahamiyatlidir.

Mustaqillik yillarida Jizzax davlat pedagogika institutida faoliyat olib borgan rektorlar. 1990-yili B.o'rinboyev yana institutni rektori etib tayinlandi. 1992-yil noyabr oyigacha faoliyat olib bordi. Institutda 1992-1995-yillar geografiya fanlari doktori, professor S.Nishonov rektorlik faoliyatini olib bordi. Kimyo fanlari doktori, professor

G'.Muhammedov 1997-yildan 2005-yil mart oyigacha rahbarlik qilib, Institutni Respublikadagi ilg'or o'quv maskanlaridan biri darajasiga ko'tarish va professor o'qituvchilar orasida sog'lom muhit yaratish borasida ibratli ishlarni amalga oshiradi.<sup>20</sup> Jizzax davlat pedagogika institutiga 2005-yil mart oyidan alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetida mexanika-matematika fakulteti dekani lavozimida ishlagan fizika-matematika fanlari doktori, professor o.Dostmatov rektor etib tayinlandi va bu lavozimda 2004-yilgacha faoliyat ko'rsatdi. 2014-2015-yillarda institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori fizikamatematika fanlari nomzodi, dotsent Ne'mat adilovich alimov rektor vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

2015-yilning aprel oyida sotsiologiya fanlari doktori, professor Xolbekov abdug'ani Jumanazarovich rektorlik lavozimiga tayinlandi. Institutga 2020-yilning mart oyida pedagogika fanlari doktori, professor Sharipov Shavkat rektor etib ta'yinlandi va samarali faoliyat olib bormoqda. Institut tarixining ma'lum bir davrida faoliyat olib borgan har bir rektor oliygohni rivojlantirish uchun o'zlarining beqiyos xizmatlarini qo'shib kelgan.

Jumladan geografiya fanlari doktori, professor Sodiq ahmadovich Nishonov rektorlik qilgan davrda o'quv-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni xozirgi zamon talablari darajasiga juda katta tashkilotchilik ishlari amalga oshirildi.<sup>21</sup>

Kimyo fanlari doktori, professor G'afurjon Isroilovich Muhamedov rahbarligi davrida oliygohning o'quv binosi 3000 talabaga mo'ljalangan holda kengaytirildi.

Mazkur davrda zamon talablariga to'liq javob bera oladigan 400 o'rinli zamonaviy yotoqxon, yozgi sport maydonchalari, axborot-kutubxona markazi qaytadan kapital rekonstruksiya qilindi.

Fizika-matematika fanlari, doktor, professor olimjon Musurmonovich Do'smatov davrida 2006-2008-yillar davomida ikkita qishki usti yopiq sport zal, ikki va uch qavatli jismoniy-madaniy fakultetining o'quv binosiga qurilib foydalanishga topshirilgani institute jamoasining quvonchiga sabab bo'ldi.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor Xolbekov abdug'ani Jumanazarovich davrida

<sup>20</sup> H.Haydarov. Q.Usmonov Jizzax tarixi (Jizzax tarixi haqida lavha va xotiralar) Toshkent "o'qituvchil 2009-yil. 250-bet.

<sup>21</sup> Xayitboy Xaydarov —Jizzax viloyati tarixi Toshkent 1996-yil.



Date: 1<sup>st</sup> November-2025

2019-2020-yillarda o'quv binoning asosiy ko'rpusi va yordamchi binolari to'liq qaytadan kapital rekontruksiya qilindi va zamon talablariga to'liq javob beradigan jihozlar bilan jihozlandi.

Pedagogika fanlar doktori, professor Sharipov Shavkat Safarovich faoliyati davomida institutning moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlandi. oliygohning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash yo'lida mashaqqatli mehnatlarini ayamay kelmoqda. Shu jumladan institutda yangi ta'lim yo'nalishlari, fakultet, bo'lim va kafedralar tashkil qilinmoqda. 1992yildan boshlab respublikamizning 6 ta oliy ta'lim muassasasida o'qishga qabul qilish suhbatdan, test sinoviga o'tkazildi. 1993-yildan boshlab 46 ta oliy o'quv yurtidan 19 tasi tajriba sifatida test sinovlari o'tkazildi. 1994yildan Davlat test markazi joriy etildi. Respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlari test jarayoniga o'tdi. Shu jumladan Jizzax davlat pedagogika institut ham.

Mana shu sanadan e'tiboran yuksak bilimga ega bo'lgan maktab bitiruvchilari va abitruentlar adolatli test sinovidan o'tib oliygoh talabasi bo'lishga muassar bo'la boshladi. 2017-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari tubdan isloh qilindi. 2017-yil 16noyabrda o'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari baalavriyatiga kirish testi sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi" gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq 2018-2019-o'quv yilidan boshlab Jizzax davlat pedagogika institutida ham test sinovlari 15 davomida o'tkazilishi va imtihondan ertasi kuni natijalar e'lon qilinishi belgilandi. Institutning tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, musiqa yo'nalishlarida test sinovlari o'rniga ijodiy imtihonlar joriy qilinishi mazkur yo'nalishlarga itidorli abituriyentlarning kirishi ta'limli ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda Jizzax davlat pedagogika institutida bakalavriyat, magistratura, sirtqi va kechki ta'limning mavjudligi yoshlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Institutda 2017-yil 1-iyulda oliy ta'limdan keying ta'lim jarayoni ham tashkil qilindi ya'ni dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi doktoruntara bosqichi. Jizzax davlat pedagogika institutida bunday ta'lim bosqichlarining yo'lga qo'yilishi respublika oliy o'quv yurtlari ichida alohida va muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.A.Nishonov, X.X.Haydarov. "Jizzaxning to'ng'ich o'quv yurti" Jizzax. 1994.
2. H.Haydarov, Q.Usmonov. Jizzax tarixi(Jizzax tarixi haqida xotira va lavhalar) Toshkent"o'qituvchi". 2009.
3. "Ziyo chashmasi" 01.01.2021-yil 286-son.
4. "Jizzax tarixi" X.Xaydarov, G.Usmonov. Toshkent 2009-y
5. arxiv hujjatlari. 19.09.2003-y. Sanadagi xat.
6. arxiv hujjatlari. 20.12.2003-y. Sanadagi xat.
7. I.a.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" 1998-y.
8. Xayitboy Xaydarov "Jizzax viloyati tarixi" Toshkent 1996-yil.

